PEDAGOGIKA

UDK: 37.015:502.131 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a14**

O‘QUVCHILARDA EKOSAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING RIVOJLANTIRISHDA MILLIY MA’NAVIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РАЗВИТИИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ

THE IMPORTANCE OF NATIONAL SPIRITUAL VALUES IN THE DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL LITERACY IN STUDENTS

Maxsudova Gulnora Muhammadjonovna[1]

[1]**Maxsudova Gulnora Muxammadjonovna** − Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi.

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirish tushunchalarini rivojlantirishda milliy ma’naviy qadriyatlarning ahamiyati va o‘quvchilarni atrof-muhitni toza saqlashga, ozodalikka, pokizalikka rioya qilishlari bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Аннотация

Статья посвящена значению национальных духовных ценностей в развитии учащихся, понятию формирования экологической грамотности и воспитанию учащихся в духе приверженности, сохранению окружающей среды в чистоте, порядке, целомудрии.

Abstract

The article deals with the importance of national spiritual values in the development of the concepts of the formation of ecological literacy in students and the observance of students to keep the environment clean, tidy, virgin.

Kalit so‘zlar: *ekologiya, biosfera, ekosavodxonlikni shakllantirish, atrof-muhit, milliy qadriyatlar, sog‘lom turmush tarzi, ekologik muloqot, ekologik milliy qadriyatlar.*

Ключевые слова: *экология, биосфера, формирование экограмотности, окружающая среда, национальные ценности, здоровый образ жизни, экологический диалог, экологические национальные ценности.*

Key words: *ecology, biosphere, formation of eco-economy, environment, national values, healthy lifestyle, environmental dialogue, environmental national values.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida aholining ekologik hayoti sifatini yaxshilash ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda va atrof-muhitni musaffoligini saqlash, suv tanqisligining oldini olish, aholi salomatligi va genofondini muhofaza qilish, global va mintaqaviy ekologik muammolar, yangi ekologik xavf-xatarlarning oldini olishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu sababli, ekologik ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarning ekologik tafakkurini rivojlantirish, ekologik madaniyatni yuksaltirish, ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon mazmunini optimallashtirish, didaktik ta’minotini takomillashtirish taqozo etilmoqda. Atrof-muhit holatining tahlili, global va mintaqaviy ekologik muammolar, yangi ekologik xavf-xatarlarning oldini olish O‘zbekiston Respublikasida aholining hayot sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim manbai hisoblangan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi”, “Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”da o‘z ifodasini topgan.[1]

Jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan bugungi jamiyatda ota-onalar, pedagog - tarbiyachi murabbiylar oldida turgan vazifalardan biri, bolaga ekologik tarbiya berish muhim hisoblanadi. Bugungi kunda ilm-ma’rifat orqali barcha sohalarni rivojlantirayotgan davlatlargina taraqqiyotga erishayotgani hech kimga sir emas. Shu nuqtayi nazardan, yosh avlodni tarbiyalab, ularni komil inson martabasiga yetkazishdan iqtisodiyotni rivojlantirishga qadar bo‘lgan barcha islohotlarda ilm-fan yutuqlariga tayanilsagina, yuksak maqsadlarga erishish mumkinligini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Darhaqiqat, mustaqil O‘zbekistonimizda yosh avlodni ma’naviy-axloqiy rivojlantirish, ularning ma’naviyatini yuksaltirishga katta e’tibor qaratilmoqda, bunda bevosita ma’rifatning o‘rni beqiyos.[2:9]

Zero, ma’rifat- tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar majmuasi, kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim - tarbiyadir.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatda barqaror taraqqiyotga erishishda eng dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida ekologik xavfsizlik, suv va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.[3]

2015-yil 24-sentyabrda qabul qilingan BMTning «Barqaror rivojlanish konsepsiyasi»da belgilangan 17 ta maqsadning 4 tasi bevosita ekologik mas’uliyatlilik, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga bag‘ishlangan. Bunday ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun «Sifatli ta’lim», xususan sifatli ekologik ta’limni takomillashtirish, ekologik ta’limni modernizatsiyalash asosida o‘quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Buning uchun xalqaro tashkilotlar davlatlar miqyosida kadrlar tayyorlashning yangicha innovatsion usullarini ishlab chiqish va uni milliy uzluksiz ta’lim tizimiga joriy qilishni taqozo etmoqda.

Murojaatnomada ko‘rsatib o‘tilgan, ekologik tahdidlarni bartaraf etish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash borasidagi tadbirlarning asosiy yo‘nalishlari hozirgacha yetarli darajada hayotga tatbiq etilgani yo‘q va dolzarbligicha qolmoqda.[4]

Maktab o‘quvchilariga ekologik xavfsizlik tushunchalarini rivojlantirishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar, marosimlar, nodir qo‘lyozmalar va davlat arboblarining ushbu sohaga oid faoliyatlari mustahkam didaktik asos bo‘lib, bular orqali ularni atrof-muhitni toza saqlashga, ozodalikka, pokizalikka va eng asosiysi sog‘lom turmush tarzi hamda muhitini tashkil eta olishga o‘rgatiladi.

Milliy qadriyatlar- millatga mansub bo‘lgan umumjahon taraqqiyoti qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Milliy qadriyatlar-o‘z millatidan, o‘z yurtidan faxrlanish, o‘zbek davlati fuqarosi ekanligidan g‘ururlanish kabilardir. Milliy qadriyatlar negizini quyidagilar tashkil etadi.

Milliy g‘urur, o‘zbek millatining asosiy fazilatlari, xalqimizning ma’naviy merosdir. Chunki, mamlakatimizda yashayotgan har bir o‘quvchining va butun aholining ekologik madaniyati kamoloti orqali insonparvar, demokratik, huquqiy fuqarolik jamiyati, kelajagi buyuk O‘zbekiston barpo etiladi. O‘zbek xalq qadriyatlari orasida tabiatni saqlash, qadriga yetish, chiroyiga-chiroy, ko‘rkiga-ko‘rk qo‘shish odatlari bor.

Ota-bobolarimiz zilol suvni, buloqlarni, so‘lim daraxtzorlarni, qoya-g‘orlarni, xosiyatli o‘t-o‘lanlarni, gul-giyohlarni muqaddas bilib asrashga, niyati nopok kishilardan saqlashga, toptamaslikka, oyoq osti qilmaslikka alohida e’tibor berib kelganlar.[5:348]

Xalq nopok kishilar haqida shunday iboralar qo‘llagan: Daraxt ko‘r qilgur», «Moling sutdan qolsin», «Parranda ursin» (qarg‘ish), «Daraxtga ko‘z olaytirma, yomon bo‘ladi», «Suvga tupurma, iflos bo‘ladi», «Yerni toptama, u dunyoliging qolmaydi» kabi naqllar ham bekorga aytilmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ekologik ta’lim muammolari MDH pedagog olimlari tomonidan ham tadqiq etilgan. Masalan, akademik I.D. Zverev (Ekologik nazariya asoslari), A.N.Zaxlebniy (Ekologik ta’limning pedagogik asoslari), I.Suravegina (Biologiya o‘qitishda o‘quvchilarga ekologik ta’lim berish), I.Matrusov va boshqa bir qator olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan. So‘nggi yillarda ekologik ta’lim muammolari yo‘nalishida bir necha tadqiqotlar olib borilgan. Ulardan: R.N.Galimardanova, YE.N. Golovanova, M.N.Grinko, I.S.Ilyasova, S.Ismonkulov, N.A.Kanarskaya, G.V.Loskutnikova, S.F.Maslennikova, T.L.Kushnir, YE.V.Litvina, R.I.Pazova, YE.I.Polyanskaya, T.S.Xazikova, P.I.Agalarova, V.V.Chervonetskiy kabilarning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bevosita o‘quvchi va talabalarda ekologik tafakkurni shakllantirish masalalariga bag‘ishlangan.[6]

Xorijiy olimlardan R.Aron, Byrne E., M.James, D.Jongward, Weiner E.N., Galbraith, J.New, Conway A.R., Kane M.J., Engle R.W.lar tomonidan ekologik xavf va xavfsizlik to‘g‘risidagi ta’limotning metodologik asoslari tadqiq etilgan bo‘lsa, V.Goldschmidt, M.Goldschmidt, J.D.Russell ekologik bilimlarni egallagan, salohiyatli shaxsni shakllantirish asoslarini, E.Bern, M.Djeyms, D.Djongvard o‘qitishni ekologik mazmundagi bilimlar asosida tashkil etish, G.Spenser, J.Gilbert, J.Fernandez-Balvoa, S.Merriam, P.Ertmer, I.I.Brexman, E.N.Vayner va boshqalar tomonidan sog‘lom turmush tarzini o‘rgatish usullari tadqiq qilingan.

Biroq, so‘nggi yillarda dunyodagi globallashuv va turli texnogen sabablar tufayli ekologik muammolarning paydo bo‘lishi tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning ekologik tafakkurini rivojlantirishni taqozo etib, ekosavodxonlikni shakllantirish tushunchalarini rivojlantirishda mexanizm va texnologiyalarini tadqiq qilish zaruriyatini kuchaytirmoqda.[7]

Pedagogik ta’lim jarayonida ekosavodxonlik amalga oshirishning nazariy asoslari, mexanizmlari va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda talabalarning ekologik tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar yaratishdan iborat.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS)

“Ekologik tarbiya”, “ekologik tafakkur”, “Ekologik madaniyat”, “ekologik kompetensiya”, “ekologik xavfsizlik” tushunchalarini o‘quv modullariga singdirish asosida uzviy o‘rgatishning mazmuni va pedagogik imkoniyatlari tayanch va ta’limiy kompetensiyalarning aloqadorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan metodik tizimni talaba shaxsining xavfsiz rivojlanish jarayoniga emotsional va interpretativ ta’sirchanlik darajalarini hisobga olish asosida aniqlashtirishga doir takliflar “Kimyo o‘qitish metodikasi” darsligi mazmuniga singdirilgan. (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-son buyrug‘i asosida berilgan 356/7-008 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, talabalarda zarur hayotiy ko‘nikmalar (maqsadning aniqligini ta’minlash, tez va samarali qaror qabul qilish, ekologik muammolarni tahlil etish, vaziyatga moslashish, kommunikativlik, natijalarni bashorat qilish, salomatlikni saqlash va nazorat qilish)ni rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion faoliyat (fasilitatsiya, moderatsiya, trenerlik) elementlarini auditoriya va auditoriyadan tashqari pedagogik jarayonda qo‘llashga xizmat qilgan.

Dunyo ekologik tadqiqotlar tizimida tabiatga ekologik munosabat va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning global muammolari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb masala sanaladi. Xususan, insonlarning tabiatga ekologik munosabatini jamiyat ekologik ongi va madaniyati bilan korrelyatsion va integrativ aloqadorligi, inson bilan tabiatning ekologik muloqotini rivojlantirish, manfaat va ehtiyojlarni optimallashtirish masalasi asosiy ilmiy muammoga aylangan. Atrof-muhitning qulay ekologik holatini, biosfera muvozanatini, tabiiy landshaftlar komplekslarini va ekologik borliqni madaniylashtirishga qaratilgan ishlar shaxs ekologik ongida utilitar ekologik milliy qadriyatlarni shakllantirib, tabiatga ekologik munosabatini rivojlantirib, zararsiz atrof-muhitni, iqtisodiy komplekslarni yaratishni maqsad qilib qo‘ymoqda.

“Ekologik tarbiya”, “ekologik tafakkur”, “ekologik madaniyat”, “ekologik kompetensiya”, “ekologik xavfsizlik” tushunchalarini oliy ta’lim o‘quv modullari mazmuniga singdirish orqali talabalarda ekologik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari va shart-sharoitlarini yaratilmoqda.[8:174]

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida ekologik ta’lim-tarbiyani amalga oshirish algoritmik bosqichlari, samarali yo‘llari, usul va metodlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari, texnologiyalarini qo‘llash, ularning samaradorligi, oliy pedagogik ta’lim tizimida talabalarni ekologik tarbiyalash jarayoni o‘quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirishning rivojlantirishda milliy ma’naviy qadriyatlarning ahamiyatini takomillashtirish bugungi kun asosiy masalalaridan biridir.

Ekologik tarbiya mexanizmlari ushbu maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon o‘quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirishning rivojlantirishda milliy ma’naviy qadriyatlarning takomillashtirish o‘quvchilarda natijasida zarur hayotiy ko‘nikmalar (maqsadning aniqligini ta’minlash, tez va samarali qaror qabul qilish, ekologik muammolarni tahlil etish, vaziyatga moslashish, kommunikativlik, natijalarni bashorat qilish, salomatlikni saqlash va nazorat qilish)ni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

XULOSA

Maktab o‘quvchilarining ekosavodxonlik tushunchalarini rivojlantirishda milliy ma’naviy qadriyatlarning ahamiyati har bir o‘quvchi yoshlarni ekologik bilim va tushunchalarini shakllantirishda kitoblarni o‘qishga ishtiyoq uyg‘otish, qo‘shiq aytish, raqs tushish, rasm chizish malakalarini tarkib toptirish, rangtasvirlar, musiqa asari, me’morchilik, teatr to‘g‘risida tushunchalar, tarixga qiziqtirish hosil qilinadi.

Ma’naviy merosni ardoqlash, urf-odatlar va an’analarga sodiq qolish, diniy qadriyatlarni ardoqlash va o‘quvchi yoshlarda tabiatga bo‘lgan muhabbatni va e’tiborni kuchaytirishdan iboratdir.

Tabiat bu bitmas-tuganmas xazinadir. O‘simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to‘g‘ri o‘sib shakllanishida, tabiatda bo‘ladigan voqea-hodisalarning sir-asrorini o‘rganib voyaga yetishida katta manba bo‘lib xizmat qiladi.

Maktab darsliklaridan bilim olish jarayonida ekosavodxonlik bilimlarni to‘g‘ri shakllantirib borish, shuningdek, milliy ma’naviy qadriyatlarni tatbiq qilishdan iboratdir.

Umumiy ta’lim tizimida talabalarni ekologik tarbiyalashning nazariy asoslari, ekosavodxonlikni shakllantirish tushunchalarini rivojlantirishda milliy ma’naviy qadriyatlarning

ahamiyati va o‘quvchilarni atrof-muhitni toza saqlashga, ozodalikka, pokizalikka rioya qilishlari bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.[10:165]

O‘quv jarayonini tashkil etishning motivatsion, amaliy-faoliyatli sohalarini etnoekologik, etnopedagogik yondashuvlar, ekosavodxonlikni shakllantirish bilan integratsiyalash, makon, zamon va inson omiliga ustuvorlik berish asosida aniq ma’lumotlar yoritib berilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishga muljallangan Ilmiy-ommabop qullanma Toshkent-2019.

2. I.A.Karimov O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi.-T.: “O‘zbekiston”, 2005

3. R. Mavlonova, O.To‘rayeva, K.Xoliqberdiyev Pedagogika T.:, «O‘qituvchi » 2001

4. Xalmatova, Sh., & Maxsudova, G. (2022). EKOLOGICHESKOYE VOSPITANIYE. TaYEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(5), 356-362.

5. Hamidov, G., Makhsudov, K., & Makhsudova, G. (2021, August). ON TaYE PROCESS OF NECTAR SEPARATION OF MEDIUM-FIBER COTTON VARIETIES IN TaYE FERGANA VALLEY: https://doi.org/10.47100/conferences. v1i1. 1365. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.06).

6. Hamidov, G., Makhsudov, K., & Makhsudova, G. (2021, July). ON TaYE PROCESS OF NECTAR SEPARATION OF MEDIUM-FIBER COTTON VARIETIES IN TaYE FERGANA VALLEY. In Konferensii.

7. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). TaYE ROLE OF MOISTURE AS AN ECOLOGICAL FACTOR IN GROWTH OF COTTON PLANTS. Theoretical & Applied Science, (8), 73-76.

8. Akhmedova, D. M., & Maxsudova, M. G. (2021). The role of moisture as an ecological factor in growth of cotton plants. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1093-1098.

9. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). Morphology of the pollen of some cotton species and hybrids. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 84-87.

10. Abdullayeva, M. T. L., & Maqsudova, G. M. (2021). EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYADA XORIJIY TAJRIBA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 159-165.

11. To‘lanovna, A. M., & Maxammadjonovna, M. G. (2021). EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYADA XORIJIY TAJRIBA.

12. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). TaYE ROLE OF MOISTURE AS AN ECOLOGICAL FACTOR IN GROWTH OF COTTON PLANTS. Theoretical & Applied Science, (8), 73-76.